Bosh vazir o‘rinbosari – energetika vaziri Jo‘rabek Mirzamahmudov boshchiligidagi ishchi guruh a‘zolari “Qo‘ng‘irot soda zavodi” MCHJ QKga tashrif buyurdi

// 17.10.2022
https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/ishchi-guruh-azolari-qungirot-soda-zavodiga-tashrif-buyurdu



O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining yoqilg‘i-energetika va kimyo sohalarini rivojlantirish bo‘yicha o‘rinbosari - energetika vaziri Jo‘rabek Mirzamahmudov boshchiligidagi ishchi guruh hududlarda kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ishlarini o‘rganish maqsadida Qoraqalpog‘iston Respublikasiga tashrif buyurdi.

Tashrif davomida ishchi guruh a‘zolari “Qo‘ng‘irot soda zavodi” MCHJ QKda ham bo‘lishdi. Korxona faoliyati hamda ko‘rsatkichlari Jo‘rabek Mirzamahmudov tomonidan tanqidiy va tahliliy muhokama qilindi hamda “Qo‘ng‘irot soda zavodi” MCHJ QKning ishlab chiqarish bo‘yicha bosh direktor o‘rinbosari – bosh muhandisi ishdan olinib, korxonaning Ishlab chiqarish bo‘limi boshlig‘i Shuhrat Shamuratov, ishlab chiqarish bo‘yicha bosh direktor o‘rinbosari – bosh muhandis lavozimiga tayinlandi.

Shu bilan birga, ishchi guruh a‘zolari “Elabad” SHFY hududida barpo etilayotgan “Yangi O‘zbekiston” massivi hamda Xalqaro logistika markazi qurilish maydonlarida bo‘lib, joylarda amalga oshirilayotgan ishlar bilan yaqindan tanishishdi. Loyihalarni yuqori sifat va xalqaro standartlar asosida qurish, ishlarni yanada

jadallashtirish yuzasidan tegishli ko‘rsatmalar berildi.




Uzkimyosanoat
MATBUOT XIZMATI
uzkimyosanoat
uzkimyosanoat.uz
(+99878) 140-74-26



“O‘zkimyosanoat” AJ Matbuot xizmati